

Date: 13th January-2026

IJTIMOYIY HIMOYA DASTURLARINI MOLİYALASHTIRISH MASALALARI: TAHLIL VA ISTIQBOLLAR

Barakayeva Xilola Mahmudovna

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistri

Annotatsiya: Maqolada ijtimoiy himoya dasturlarini moliyalashtirish masalalari, mavjud moliyaviy resurslar va ularning samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, mamlakat iqtisodiy imkoniyatlari, davlat budjeti taqsimoti va moliyalashtirishning istiqbolli yo'nalishlari o'rganiladi. Tavsiyalar asosida ijtimoiy himoya tizimini barqaror rivojlantirish imkoniyatlari ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy himoya, moliyalashtirish, budjet, davlat siyosati, ijtimoiy dasturlar, iqtisodiy tahlil.

Аннотация: В статье анализируются вопросы финансирования программ социальной защиты, имеющиеся финансовые ресурсы и их эффективность. Также исследуется экономический потенциал страны, распределение государственного бюджета и перспективные направления финансирования. На основе рекомендаций указываются возможности устойчивого развития системы социальной защиты.

Ключевые слова: социальная защита, финансирование, бюджет, государственная политика, социальные программы, экономический анализ.

Abstract: The article analyzes the issues of financing social protection programs, available financial resources and their effectiveness. It also studies the country's economic potential, the distribution of the state budget and promising areas of financing. Based on the recommendations, the possibilities of sustainable development of the social protection system are indicated.

Keywords: social protection, financing, budget, state policy, social programs, economic analysis.

KIRISH: Ijtimoiy himoya tizimi har bir mamlakatda fuqarolarning ijtimoiy barqarorligini ta'minlash, kam ta'minlangan qatlamlarni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy tenglikni saqlashga xizmat qiladi. Zamonaviy sharoitda ijtimoiy himoya dasturlarini moliyalashtirish masalalari o'ziga xos ahamiyat kasb etadi, chunki davlat budjeti cheklangan, iqtisodiy o'sish va soliqlar darajasi esa ma'lum miqdorda cheklovlarga ega.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoya tizimi bir necha asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi: nafaqalar va pensiyalar, nogironlar va yetim bolalarga yordam, bandlikni qo'llab-quvvatlash dasturlari, va boshqa ijtimoiy dasturlar. Ularning moliyalashtirilishi davlat budjeti mablag'lari, ijtimoiy sug'urta jamg'armalari va boshqa manbalar orqali amalga oshiriladi.

Maqolada ijtimoiy himoya dasturlarining moliyalashtirish tizimi tahlil qilinadi, mavjud muammolar aniqlanadi va istiqbolli yechimlar taklif etiladi. Shu bilan birga, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va davlat siyosatini optimallashtirish orqali ijtimoiy barqarorlikni oshirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.



Date: 13th January-2026

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoyalashning moliyalashtirish masalalarini o'rganish uchun sifat va miqdoriy tahlil usullari qo'llanildi. Avvalo, ilmiy manbalar tahlili orqali kambag'allikni kamaytirish bo'yicha ilg'or tajribalar va mavjud nazariyalar o'rganildi. Shu bilan birga, statistik ma'lumotlar asosida davlat moliyaviy resurslarini ijtimoiy dasturlar uchun ajratish dinamikasi tahlil qilindi. Ushbu tahlil mablag'lar hajmi, ularning taqsimlanish samaradorligi va vaqt bo'yicha o'zgarishini ko'rsatdi. Shuningdek, O'zbekiston va boshqa davlatlar tajribasini taqqoslash uchun komparativ tahlil yondashuvi qo'llanildi. Bu yondashuv davlat siyosatidagi farqlarni aniqlash, samarali moliyalashtirish mexanizmlarini aniqlash va ularni O'zbekiston sharoitiga tatbiq etish imkonini berdi. Mazkur metodlar mavzu bo'yicha asosli, ilmiy va amaliy xulosalar chiqarishga imkon berdi hamda tadqiqot natijalarining ishonchliligini oshirdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

N. Fayzullayev va S. Mayliyevlarning 2023-yilgi tadqiqotlarida kambag'allikni qisqartirish maqsadida aholi daromadlarini oshirishda olib borilayotgan siyosatlarning dolzarbligi tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotda davlat tomonidan aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar va ularning samaradorligi yoritilgan. Mualliflar iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi kambag'allikni kamaytirishning muhim omili ekanini ta'kidlaydi[1]. G. Sultonovning 2024-yilgi tadqiqotida O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish siyosatining real ta'siri o'rganilgan. Muallif o'z tadqiqotida ijtimoiy himoya tizimi va iqtisodiy barqarorlikni oshirish bo'yicha qabul qilingan dasturlarni tahlil qilib, ularning kambag'allikni qisqartirishga qanchalik hissa qo'shishini baholaydi. Tadqiqot natijalari kambag'allikni kamaytirish siyosatining kompleks yondashuv orqali amalga oshirilishi zarurligini ko'rsatadi[2].

R. Maxmudovning 2024-yilgi asarida kambag'allikni qisqartirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari keng yoritilgan. Tadqiqotda kambag'allik nafaqat iqtisodiy muammo, balki jamiyatning madaniy va axloqiy rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omil sifatida qaraladi. Muallif ijtimoiy mas'uliyat, fuqarolik jamiyatining roli va davlat siyosatining ahamiyatini chuqur tahlil qiladi.[3] B. G. Gulamovning 2023-yilda chop etilgan tadqiqotida aholi turmush darajasini oshirish va kambag'allikni qisqartirish masalalari batafsil tahlil qilingan. Ushbu ishda aholining daromadlarini ko'paytirishga qaratilgan davlat dasturlari va ularning amalga oshirilish jarayonlari yoritilgan. Muallif iqtisodiy siyosatning har bir qatlami uchun alohida mexanizmlarni ishlab chiqish kerakligini taklif etadi [4]. A. M. Asqarovning 2023-yilgi tadqiqotida kambag'allik ijtimoiy-iqtisodiy muammo sifatida tahlil qilingan. Muallif iqtisodiy tengsizlikning ildizlarini o'rganib, ularni bartaraf etish bo'yicha ilg'or tajribalarga murojaat qilgan. Tadqiqot natijalari kambag'allikni kamaytirish uchun nafaqat iqtisodiy choralar, balki ta'lim va sog'liqni saqlash sohasida ham izchil islohotlar olib borish zarurligini ko'rsatadi [5]

Yuqoridagi tadqiqotlar kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoyalash sohasida ko'plab muhim jihatlarni qamrab olib, bu boradagi ilmiy izlanishlarning dolzarbligini tasdiqlaydi. Har bir asar kambag'allikni kamaytirishga qaratilgan turli

Date: 13th January-2026

strategiyalarni taklif etib, muammoning yechimiga kompleks yondashuv zarurligini ta'kidlaydi.

TADQIQOT NATIJALARI

Ushbu tadqiqot natijalari kambag'allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoyalashning moliyalashtirish mexanizmlari samaradorligini baholashga asoslangan. Sifat va miqdoriy tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy siyosatlar muhim natijalar berayotgani kuzatildi.

Statistik tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonning ijtimoiy himoya sohasiga ajratilgan mablag'lari yildan-yilga ortib bormoqda. 2020–2023 yillar davomida ijtimoiy dasturlarga ajratilgan mablag'lar hajmi 80% ga oshgan. Bu o'sish davlatning kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirishga bo'lgan e'tiborini aks ettiradi.

So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdiki, respondentlarning 75% ijtimoiy yordam dasturlaridan xabardor va ulardan foydalanmoqda, shuningdek 60% ijtimoiy yordam ularning turmush darajasini sezilarli darajada yaxshilaganini bildirgan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda kambag'allik darajasi 2020-yilda 11% bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 8% gacha pasaygan.



1-rasm

Komparativ tahlil shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonning kambag'allikni qisqartirish bo'yicha tajribasi qo'shni rivojlanayotgan mamlakatlar bilan solishtirganda samarali bo'lmoqda. Masalan, Qozog'iston va Qirg'iziston kabi davlatlarda ijtimoiy himoya dasturlariga ajratilgan mablag'lar O'zbekiston bilan solishtirganda kamroq bo'lib, kambag'allik darajasi pasayishi sekinroq kuzatilgan.

Kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu jarayonni amalga oshirish uchun bir nechta asosiy tamoyillarga amal qilish zarur:

Date: 13th January-2026

Iqtisodiy o'sishni ta'minlash va daromadlarni oshirish: yangi ish o'rinlarini yaratish va aholining daromadlarini oshirish orqali kambag'allikni kamaytirish.

Ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish: eng zaif qatlamlarni qo'llab-quvvatlash, ularning asosiy ehtiyojlarini qondirish va hayot sifatini oshirish. Shu jumladan, pensiyalar, bolalar nafaqalari, ishsizlik nafaqalari, sog'liqni saqlash xizmatlari va boshqa yordam choralari mavjud.

Ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarini yaxshilash: aholining bilim va malakasini oshirish orqali mehnat bozorida raqobatbardoshlikni kuchaytirish va salomatlikni yaxshilash.

Jadval 1. Ijtimoiy himoya dasturlariga ajratilgan byudjet va qamrov (2025 yil)

Dastur nomi	Byudjet, mlrd so'm	Qamrov, ming kishi	O'rtacha foydalanuvchi to'lovi, so'm	Qamrov foizi (%)
Nafaqa va pensiyalar	12,500	2,300	5,435	18
Nogironlar uchun nafaqalar	1,800	280	6,429	2.2
Kam ta'minlangan oilalarga yordam	3,200	410	7,805	3.2
Ishsizlik bo'yicha nafaqalar	850	110	7,727	0.85
Bolalarni moddiy qo'llab-quvvatlash	2,100	350	6,000	2.8
Jami	20,450	3,450	5,923	27.15

Jadval 2. Ijtimoiy himoya dasturlarini moliyalashtirish manbalari va istiqbollari (2025–2030)


Moliyalashtirish manbai	2025 yil, mlrd so'm	2030 yil prognozi, mlrd so'm	O'sish sur'ati (%)	Izoh
Davlat byudjeti	15,000	21,000	40	Davlatning asosiy moliyaviy manbai
Xususiy sektor va donorlar	2,500	3,500	40	Xususiy va xalqaro homiyliklar
Sug'urta jamg'armalari	1,500	2,500	66	Ijtimoiy sug'urta dasturlaridan tushum
Mahalliy jamoatchilik fondlari	1,200	1,800	50	Mahalliy hamjamiyat va nodavlat tashkilotlar
Jami	20,200	28,800	42.6	---

Izoh: Prognoz 2025–2030 yillar uchun iqtisodiy o'sish va davlat siyosati asosida taxminiy hisoblangan.



Date: 13th January-2026

Ijtimoiy himoyani moliyalashtirishning zarurati: Aholini ijtimoiy himoyalashning samarali tizimi moliyalashtirish manbalarining barqarorligiga bog'liq. Davlat byudjeti, xususiy sektor va xalqaro tashkilotlar mablag' manbai sifatida xizmat qilishi mumkin. Davlat byudjeti eng ishonchli manba bo'lib, mablag'larni samarali taqsimlash zarur. Xususiy sektor va xalqaro yordam esa moliyaviy yukni kamaytiradi va tizim samaradorligini oshiradi.




2-rasm .

Samaradorlikni oshirish: ijtimoiy himoya dasturlarining samaradorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar muhim:

- Yordamlarning manzillik tamoyiliga amal qilinishi (eng muhtoj kishilarga yetkazish).
- Monitoring va baholash tizimini joriy qilish orqali dasturlar natijadorligini tahlil qilish.
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish, masalan, elektron to'lov tizimlari orqali nafaqalar va yordamlarni bevosita oluvchilarga yetkazish.

Date: 13th January-2026

Barchamizga ma'lumki, mamlakatimizda mustaqillik qo'lga kiritilgach, davlat moliya sohasida, xususan, davlat byudjeti xarajatlari, ularning yo'nalishlarini belgilash sohasida qator islohotlar amalga oshirildi. Dastlabki yillarda amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy resurslar tanqisligi davrida davlat zimmasidagi yuklatilgan birlamchi vazifalarni amalga oshirish, ayniqsa, ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab quvvatlashga bo'lgan e'tiborni kuchaytirdi.



1- 3-rasm. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tadbirlarini moliyalashtirish manbalari.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tadbirlari bir qator moliyalashtirish manbalariga ega bo'lib, davlat byudjeti mablag'lari ular ichida asosiy ahamiyatga va salmoqli o'ringa ega.

O'z navbatida o'tgan 5 yil mobaynida ijtimoiy nafaqa, moddiy yordam va kompensatsion to'lovlar xarajatlari, pensiya jamg'armasiga transfertlar xarajalarining ijtimoiy soha xarajatlaridagi ulushi ulushi ortib, uy-joy qurish dasturi xarajatlari 1,4% ga tushgan.


3-jadval 2019-2023 yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajatlari tarkibida aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlarning tutgan o'rni, mlrd. so'mda

	Xarajatlar	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil
	Davlat byudjeti xarajatlari	107118,4	131104,5	188257,1	236692,0	257 734
	Ijtimoiy soha xarajatlari	57822,3	66018,1	92013,6	117691,9	129 891
	Jami byudjet xarajatlariga nisbatan %da	54,0	50,4	48,9	49,7	50,4
1	nafaqa, moddiy yordam va kompensatsion to'lovlar xarajatlari	5267,2	6 573,70	10 880,3	19 397,1	18 067

Date: 13th January-2026

1.1	jami byudjet xarajatlariga nisbatan %da	4,9	5,0	5,8	8,2	7,0
1.2	ijtimoiy soha xarajatlariga nisbatan, %da	9,1	9,9	11,8	16,5	14
2	uy-joy qurish dasturi xarajatlari	2978,1	1 905	2409	1 010,8	1 100
2.1	jami byudjet xarajatlariga nisbatan %da	2,8	1,5	1,5	0,4	0,4
2.2	ijtimoiy soha xarajatlariga nisbatan, %da	5,2	2,9	2,8	0,9	0,8
3	Pensiya jamg'armasiga transfertlar	4700	8 000	14 700	11 092,0	15 000
3.1	jami byudjet xarajatlariga nisbatan %da	4,4	6,1	8,9	4,7	5,8
3.2	ijtimoiy soha xarajatlariga nisbatan, %da	8,1	12,1	17,0	9,4	11,5

COVID-19 pandemiyasi inqirozi barcha mamlakatlarda ijtimoiy himoya muammolarini kuchaytirdi. Aholini qo'llab-quvvatlash choralarda ijtimoiy zaif toifalarni qo'llab-quvvatlash byudjet xarajatlarining dolzarb masalalariga aylandi. 2021-yilda oilalarni ijtimoiy nafaqalar bilan qamrab olishning o'sishi davom etadi. Ijtimoiy nafaqa oladigan kam ta'minlangan oilalar soni 2020-yil boshiga nisbatan ikki baravarga ko'paydi. 2021-yilda yetim bolalarni qo'llab-quvvatlashga ko'proq e'tibor qaratiladi. Birinchi marta byudjetda chin yetimlarni uy-joy bilan ta'minlash maqsadida 50 mlrd so'm ajratilishi ko'zda tutildi.



Date: 13th January-2026

4-rasm. Ijtimoiy nafaqalar oluvchilar to'g'risida ma'lumot*

3-4-rasmlarda ijtimoiy nafaqalar, moddiy yordam va un narxi kompensatsiyasini hisobga olgan holda davlat byudjetidan amalga oshiriladigan xarajatlari to'g'risida ma'lumot keltirilgan. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, davlat byudjeti hisobidan ijtimoiy nafaqalar oluvchilar soni va buning natijasida ijtimoiy himoya uchun ajratiladigan xarajatlar summasi yildan-yilga oshib bormoqda, xususan, 2023-yilda 2020-yilga nisbatan jami nafaqa oluvchilarning soni 780 102 taga va jami xarajat summasi esa 7 186.7 mlrd. so'mga ko'paygan. Jumladan, bolali va kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar bo'yicha nafaqa oluvchilar 625 800 taga, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida muhtoj oilalarga bir martalik beriladigan moddiy yordam oluvchilar soni 6219 taga, bolalikdan nogironlik nafaqasi oluvchi shaxslar soni 35 062 taga ko'paygan bo'lsa, mos ravishda xarajat summasi 5 093,3mlrd. so'm, 1,6 mlrd. so'm va 871,2 mlrd. so'mga ortgan. Bola tug'ilganda to'lanadigan bir martalik to'lov beriladigan moddiy yordam oluvchilar soni 18 920 taga, xarajat summasi esa 112,2 mlrd. so'mga, zarur bo'lgan ish stajiga ega bo'lmagan shaxslar va nogironlgi bo'lgan shaxslarga nafaqalar bo'yicha oluvchilar soni 94 561 taga, xarajat summasi 1053,6 mlrd. so'mga oshgan. Shuningdek, 2023-yilda dafn uchun to'lanadigan nafaqa oluvchilar 15 228 taga kamaygan ammo xarajat summasi 14,9 mlrd. so'mga ko'paygan.

XULOSA

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kambag'allikni kamaytirish jarayonida iqtisodiy o'sish, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarini rivojlantirish hamda samarali ijtimoiy himoya tizimini tashkil etish muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, ijtimoiy himoya dasturlarining samaradorligi mablag'lar samarali taqsimlanishiga, manzillik tamoyiliga amal qilinishiga, monitoring va baholash tizimining mavjudligiga va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga bog'liq.

Xulosa qilib aytganda, kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish uchun kompleks yondashuv zarur bo'lib, bu iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional choralarni birlashtirish orqali amalga oshirilishi lozim. Ushbu tadqiqot O'zbekiston sharoitida ijtimoiy himoya dasturlarining moliyalashtirilishi va samaradorligini oshirish bo'yicha muhim ilmiy va amaliy tavsiyalarni beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Fayzullayev, N., & Mayliyeva, S. (2023). Aholi daromadlarini oshirish siyosati va kambag'allikni qisqartirish. Iqtisodiy Tadqiqotlar Jurnal, 15(2), 45–53.
2. Sultonova, G. (2024). O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish siyosatining samaradorligi. Ijtimoiy Siyosat Tahlillari, 3(1), 20–28.
3. Maxmudov, R. (2024). O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari. Byulleten pedagogov novogo Uzbekistana, 2(1), 100–102.
4. Gulamova, B. G. (2023). Aholi daromadlarini oshirish va kambag'allikni qisqartirish masalalari. Iqtisodiyot va Ijtimoiy Rivojlanish, 8(3), 55–63.
5. Asqarova, A. M. (2023). Kambag'allikni kamaytirish va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar. Jamiyat va Iqtisodiyot Jurnal, 12(4), 70–78.